

**“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ
AYOL XODIMALARI TIBBIY
KO‘RIK DAN O‘TKAZILDI**



Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tashabbusi hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamkorligida ijro apparati ayol xodimalarining salomatligini tekshirish, ularda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash, profilaktika amaliyotlarini o‘tkazish va kerakli maslahatlar berish maqsadida Yunusobod tumanining 50-son oilaviy poliklinikasida tibbiy ko‘rik tashkil etildi.





Bu yerda ayollar turli qon tahlillari, ultratovush diagnostikasi hamda tor doiradagi – kardiolog, LOR, nevropatolog, oftalmolog, endokrinolog va ginekolog kabi malakali shifokorlar ko‘rigidan o‘tkazildi.



BAYRAM ARAFASIDA “USTOZ-XODIMLAR” E’TIROF ETILDI




Ustoz bamisoli bog'bon kabidir. U yetishtirgan ko'chat esa bir kun kelib hosil beradi. Ustozlarning shogirdlarga beradigan bilimi haqiqiy ma'noda butun umrlik yo'ldosh bo'lib xizmat qiladi.



1-oktyabr – “Ustoz va murabbiylar” kuni munosabati bilan "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Sirdaryo hududiy filiali rahbaryati va jamiyat kasaba uyishmasi bilan birgalikda energetika tizimida uzoq yillar davomida fidokorona xizmat qilib, ko'plab shogirtlar yetishtirib, xozirda nafaqalik gashtini surayotgan bir qator faxriylar jonkuyar energetik ustozlar bayram bilan tabriklab estalik sovg'alari topshirildi va suhbatlaridan bahramand bo'lishdi.





SPORT MUSOBAQALARI O'TKAZILDI



5-6 sentabr kunlari “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ xodimlari o‘rtasida mini futbol va shaxmat bo‘yicha “Boshqaruv raisi kubogi” musobaqasining respublika bosqichi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida tizim xodimlari o‘rtasida “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!” shiori ostida sportning mini futbol va shaxmat turlari bo‘yicha “Boshqaruv raisi kubogi” musobaqasining respublika bosqichi o‘tkazildi.

Filial xodimlarining salomatligini yaxshilash, sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida tashkil qilingan ushbu sport musobaqada 200 nafardan ortiq ishchi-xodimlar bellashdilar.

O‘yinlar natijasiga ko‘ra g‘olib va sovrindorlar ma‘lum bo‘ldi.





FAXRIYLARIMIZ EL ARDOG'IDA



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 15-martdagi 167-sonli hamda “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ulani ijtimoiy faoliyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 11-martdagi 92-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan "Faxriylar Kengashi" tashabbusi ostida kasaba uyushma qo‘mitasi va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha komissiyasi hamkorligida energetika sohasida uzoq yillar ishlab, nafaqaga chiqqan hozirda ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar holidan xabar olinmoqda.



1 -IYUN BOLALARNI XIMOYA KILISH KUNIGA BAGISHLANGAN BAYRAM SHUKUXI



1 iyun xalqaro bolalar kuni munosabati bilan «Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» AJ va Jamiyat Kasaba uyushma qo‘mitasi hamkorligida jamiyat ishchi xodimlari farzandlari uchun "Kim eng chiroyli rasm chizadi" bellashuvi tashkil etildi. xodimlar farzandlari uchun "Kim eng chiroyli rasm chizadi" bellashuvi tashkil qilindi.

Tadbir so'ngida bolalar uchun bayaram dasturxonini tashkil etildi.





**“HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJDA FAOLIYAT
YURITAYOTGAN XOTIN-QIZLAR
“XON-ATLAS” FESTIVALIDA FAOL ISHTIROK ETDI**



O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashabbusi bilan "Xon-atlas" festivali o'tkazildi.



Festivalda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tizimida faoliyat yuritayotgan latofatli xotin-qizlar milliylikimiz timsoli bo‘lgan liboslarda munosib ishtirok etishdi.

